

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10801830>

IQTISODIY TARBIYA BERISH MUAMMOLARI

Tulkin Islamovich Primov

TKTI Shahrisabz filiali dotsenti;

Ilxomjon Islamovich Islomov

TKTI Shahrisabz filiali assistenti;

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy tarbiya berishning bugungi kundagi mazmun mohiyati va iqtisodiy manbalardan oqilona foydalanishga o'rgatish metodikasi haqida fikrlar bayon etilgan.

***Kalit so'zlar:** Iqtisodiy tarbiya, tabiiy-iqtisodiy manbaalar, ta'lim, mashg'ulot, tarbiya, tarbiyaviy ta'sir.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается современное содержание экономического образования учащихся начальных классов и методика обучения их разумному использованию экономических ресурсов.

***Ключевые слова:** Экономическое воспитание, природно-экономические ресурсы, образование, обучение, воспитание, воспитательное воздействие.*

ANNOTATION

This article describes the current content of economic education for elementary school students and the method of teaching them to use economic resources wisely.

Keywords: *Economic Education, natural-economic resources, education, training, upbringing, educational influence.*

Yangi O'zbekistonimizda islohotlar tobora keng quloq yoymoqda. Hayotimizning barcha jabhalarida, jumladan yosh avlod ta'lim - tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamoloti yosh avlodning sa'yi harakatlariga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. Mana shundek jarayonda o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri ta'lim tarbiya berish bugungi kunning bosh masalasi hisoblanadi [1].

Ta'lim-tarbiya barkamol insonni voyaga yetkazishga, uning ma'naviy va moddiy madaniyatini shakllantirishga, yoshlarda qator zarur ijtimoiy sifatlar, fazilatlarni shakllantirishga va eng muhim jihati esa iqtisodiy barqarorlikni rivojlantirishga qaratiladi. Ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish bolalarni to'g'ri tarbiyalash shartidir. Bunda o'qituvchining beg'araz mehnati, bolalarni sevishi va ularga jon fido aylashlari tarbiya samaradorligini ta'minlaydi. Ta'limda uzluksizlik va uzviylikka erishishdan maqsad, malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdir. Uzluksizlikni ta'minlovchi iqtisodiyotda yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimidagi markaziy siymo bu jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Uzluksiz iqtisodiy ta'limning asosiy vazifalaridan biriga aylangan iqtisodiy tarbiya haqida dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirishimiz kerak bo'ladi [2]. Eng avvalo iqtisodiy tarbiya nima ekanligi, iqtisodiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari haqida dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'rganib chiqamiz.

Iqtisodiy tarbiya nima? Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish orqali ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, oila xo'jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish kabilar)ni tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy ta'lim bilan chambarchas holda olib boriladi. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila,

ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikka tayanish ijobiy natijalarni beradi.

Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi nimadan iborat? Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi o'quvchilarga nazariy va amaliy iqtisodiy bilimlarni berish asosida ularni iqtisodiy munosabatlar jarayoni hamda iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etishga tayyorlashdan iborat.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida qanday vazifalar hal qilinadi? Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, byudjetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar)ni berish [3];

- o'quvchilarda iqtisodiy ong va tafakkur, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

- kasbiy yoki ishlab chiqarish malakalarini shakllantirish, ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

- o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

- o'quvchilar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish

Iqtisodiy tarbiya samaradorligi qanday ta'minlanadi? Iqtisodiy tarbiya samaradorligi iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs munozara, trening, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuv, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiya, o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beruvchi ko'riktanlov, hududlardagi eng ilg'or tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlar, iqtisodiy mavzularga oid konferentsiya, seminar, munozara, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiruvchi ishchanlik o'yinlarini tashkil etish asosida ta'minlanadi.

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

1) o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari (iqtisod, oila xo'jaligini yuritish va boshqarish, ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish, ishlab chiqarishni moliyalashtirish, kapital, tadbirkor, tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes, ijara, shartnomalar va ularni tuzish, banklar, bank operatsiyalari, byujetni shakllantirish, daromad, bankrot, biznes-reja va boshqalar)ni berish;

2) ularda iqtisodiy ong va tafakkur, mavjud moddiy boyliklarga nisbatan oqilona munosabatni tarbiyalash;

3) kasbiy yoki ishlab chiqarish malakalarini shakllantirish;

4) ularni iqtisodiy ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish;

5) o'quvchilarda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga nisbatan ehtiyoj va layoqatni yuzaga keltirish;

6) ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilishiga erishish [4].

Iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini taminlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma, malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boylikni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish o'ziga xos ahamiyatga ega. Iqtisodiy mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, trening, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuv, ishlab chiqarish korxonalariga uyushtiriladigan ekskursiya, o'quvchilarning ishlab chiqarish borasidagi ijodiy qobiliyatlarini namoyish etishga imkon beradigan ko'rik-tanlov, iqtisodiy yo'nalishdagi konferensiya, seminar, munozara, tadbirkorlik yoki muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikmalarini shakllantiradigan ishchanlik o'yinlarini tashkil etish iqtisodiy tarbiya samaradorligini taminlaydi.

Iqtisodiy bilim shaxsning nafaqat o'zi va oilasiga, ayni paytda xalqning farovonligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Iqtisodiy savodxonlik deganda insonning iqtisodiy jihatdan voqea hodisalarni taxlil qilish, unga baho berish va qaror qabul qilish, shaxsni o'z turmush tarzini erkin tanlashi, tanlov oqibatini ko'z o'ngiga

keltira olishi tushuniladi. Insonning dunyoqarashi va iqtisodiy savodxonligi bir-biriga bog‘liq, biri ikkinchisini taqozo qiladi. Iqtisodiy savodxonlik insonning dunyoqarashini shakllanishi va rivojlanishiga, aksincha, qaror topgan mustaqil dunyoqarash iqtisodiy savodxonlikning shakllanishiga xizmat qiladi [5]. Iqtisodiy pedagogikada eng muhim diqqat qaratiladigan muommalardan biri kambag‘allikka qarshi kurashning eng real vositalari, jumladan, mutaxassislikni chuqur va atroflicha o‘rganishdir kambag‘allikka, qashshoklikka tushib qolmaslik uchun avvalo har bir insonning uzi harakat qilishi zarur. Bu borada unga iqtisodiy jihatdan savodxonligi yordam beradi. Boshlang‘ich iqtisodiy bilim berishdan tortib, to iqtisodiy madaniyatlilik darajasigacha bo‘lgan jarayon xar bir shaxsni hayotiy ehtiyojini qondirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz iqtisodiy ta‘limni amalga oshirishning maqsadi iqtisodiy ta‘lim berishning barcha bo‘g‘inlari va bosqichlarida, ayniqsa, iqtisodchi va pedagoglar tayyorlashda hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti talablarini tushuna oladigan xo‘jalik yurituvchi mutaxassis sifatida malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan malakali iqtisodchilar tayyorlash ularni kasb uzluksizligi va uzviylikini taminlash hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tarbiya eng avvalo oiladan boshlanadi. Harqanday jamiyatning rivoj topishida oilaning o‘rni beqiyos darajada bo‘lib, har bir xonadonning ahvoli, turmush darajasi va uning ijtimoiy iqtisodiy holati butun bir mamlakatning holatini, taraqqiyot darajasini ifodalab beradi [6].

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, iqtisodiy faoliyatning asosini mehnat tashkil qiladi, demak, oilada to‘g‘ri ta‘lim tarbiya asosida o‘rgatib boriladigan mehnat, iqtisodiy tarbiyaning ham asosi hisoblanadi. Bizga ma‘lumki, bozor iqtisodiyoti jarayonida oila yoki uy xo‘jaligi turli tuman vazifalarni bajaradi. Bu jarayonida uzviy bog‘liqlik bilan birga jamiyat faoliyatining barcha jabhalarini qamrab oladi shuningdek yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarning yo‘nalishini belgilab beradi. Mamlakatning istiqboli, xalqning farovonligi, ilm va tafakkur bilan uzviy bog‘liq. Bilim, yangicha tafakkur, ijodkorlik qobiliyati xam oila muhitida shakllanadi. O‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish ham eng avvalo oila bilan

hamkorlikda amalga oshiriladi. Iqtisodiy bilim shaxsning nafaqat o‘zi va oilasiga, ayni paytda xalqning farovonligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Bola maktabga borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydir va maktabda o‘rgangan bilimlarini o‘z oilasi misolida tasovvurga ega bo‘ladi. Bu jarayonda ota-onalar esa uvol qilish gunoxligini, mehnat qilishga, mehnat nashidasidan zavqlanishga, uning natijasidan quvonishga amaliy namuna ko‘rsatshilariga qarab o‘rganadi va har bir ne‘matlarni qadriga yetish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kerakligini, farzandiga yoshligidan nasihat yo‘li bilan o‘rgatib borishi lozim bo‘ladi. Iqtisodiy bilim shaxsning nafaqat o‘zi va oilasiga, ayni paytda xalqning farovonligini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan oila, maktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining bahamjihatlikda kuch-g‘ayrat sarflashlariga va o‘quvchilarga nisbatan qo‘yiladigan talablari bir xil bo‘lishiga bog‘liq. O‘quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish jarayonida tabiat injiqliklari bilan bog‘liq ravishda tug‘iladigan ekologik muammolarni to‘g‘ri hal etishga yaroqli bo‘lgan qobiliyatni, jumladan, tejash va tejimli bo‘lish qobiliyatini hozirdan boshlab astoydil shakllantirish va o‘stirish g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Keyinchalik u umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, qolaversa, oliy ta’lim muassasalarida ham rivojlantiriladi. Bolalarga maktab va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish muammosi ko‘pdan buyon pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarga kelajaklari uchun muhim bo‘lgan tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob - kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishga yordam beradi. Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari texnologiya va tarbiya darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog‘lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o‘quvchilar shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oladilar. Avvalo, bu darslarning mazmuni to‘g‘ri belgilanib olinishi zarur. Yana bir muhim qoidani nazarda tutish kerak. Mehnat darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak atrofdagi hayotni o‘ziga xos tarzda bog‘lovchi omil bo‘lishi lozim [7].

Iqtisodiy tarbiya uslublari xilma-xildir. Jumladan, tushuntirish, suhbat, amaliy mashg'ulotlar, tabiat qo'yniga va sanoat shaxobchalariga sayohat o'tkazish, solishtirish, xisob-kitob qilish g'oyatda eng muxim uslublar hisoblanadi. Mana shundek jarayonlarda o'quvchilarda iqtisodiy tarbiya berish borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlardan unumli foydalanish lozim. O'quvchilarni qay darajada iqtisodiy tarbiya topganliklari o'qituvchilar tomonidan darsdan tashqari jarayonlarda kuzatib borilishi kerak bo'ladi. O'quvchilar iqtisodiy tarbiya berishda darslarda bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko'tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozimligini o'rganadilar. Yangi texnologiya nima va u sanoatga qanday joriy qilinadi? Fan kashfiyotlari qay darajada iqtisodiy foyda keltirishi mumkin? Shunday savollarga bolalar o'qituvchilari yordamida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda javob topadi. Iqtisodiy tarbiya ijtimoiy vokelik, o'rganilgan bilimlar bilan bevosita muloqot jarayonida — nazariyalar, qarashlar, ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadi. Iqtisodiy tarbiyaning asosini oila bilan maktab hamkorligidagi amaliy mehnat tashkil qiladi. Bunda atrof muhit voqelikdagi buyumlar, hodisalarning ijtimoiy mohiyatini butun tarkibiy qismlari bilan birgalikda aks ettirishdir, ya'ni o'rganilgan bilimlari amaliy jihatdan tashkil etilgan narsalarga qiyoslash jarayoni tushuniladi [8].

Sifatli ta'limning kafolatlanganlik natijasi samaradorlikni va maqsadga erishishni belgilaydi. Bundan ko'rinib turibdiki ta'lim jarayonlarida natijadorlikka erishish uchun sifatli ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuqori samaradorlikka olib keladi. Iqtisodiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan axborot vositalaridan zamonaviy ta'lim texnologiyalari alohida ahamiyatga egadir. Ta'limdagi innovatsion o'zgarishlar va ularni zamonamizning yangi ilg'or talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish muhim vazifa va maqsadlardan biridir. Mazkur vositalaridan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatli hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, aqliy, axloqiy xislatlarini shakllantirishga ko'maklashish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [9].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishda eng avvalo ota - ona va ta'lim dargohining o'rni beqiyos darajada. Chunki o'quvchilarning murg'ak qalbiga hech bir narsa ta'lim tarbiyadek kuchli ta'sir etmaydi va barcha tarbiyalar ichida ota-onalar tarbiyasidan ko'ra chuqurroq va mustahkamroq o'rin oladigan tarbiya yo'qdir. O'quvchilarga iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda tejamkorlik, tabiiy resurslarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, va ularni asrab-avaylashga va shu bilan birga to'g'ri yo'l tanlashga o'rgatish ham ota-onalar va o'qituvchilar ta'lim tarbiyasi orqali amalga oshirilsa kutilgan natijani beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurullaeva Sh. *Boshlang'ich sinfda pedagogik texnologiyalarni amalga oshirishda didaktik o'yinlarning o'rni. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Q.: Nasaf, 2001.224-225-bet.*
2. *Matematik modellashtirishda hisoblash algoritmlaridan foydalanish. Primov T.I., Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. 2 (2), 48-50.*
3. Primov T.I. *Matematik modellashtirishning umumiy prinsiplari. «Экономика и социум», Выпуск №2(81) часть 1 (февраль, 2021).*
4. Primov T.I., Qurbonov S.Z. *Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar. "Academic Research in Educational Sciences". 2021, Volume 2, Issue 4.*
5. T. Primov. *Axborot modellashtirishni o'rgatishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish. Наука и инновация 1 (11), 153-157.*
6. *The simplest mathematical models of economic processes. Primov T.I., Central asian journal of mathematical theory and computer sciences 4 (1), 80-82.*
7. *Matematik modellarni tuzishda variatsion tamoillar. TI Primov, SZ Qurbonov, Academic research in educational sciences 2(4)*
8. *Axborot modellashtirishni o'rgatishda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish. T Primov - Наука и инновация, 2023 1(11)*
9. *Fizikaviy masalalarni Furye usulida yechish. T Primov, M Quldoshova, N To'xtamishov, M Karimova - Наука и инновация, 2023 1(11)*